PEDAGOGIKA

UO‘K: 004.4:378.147 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a28**

TALABALARNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA MUSTAQIL TA’LIM OLISHINING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

ТЕОРЕТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

THEORETICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF INDEPENDENT LEARNING OF STUDENTS THROUGH INFORMATION TECHNOLOGIES

Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi[1]

[1]Qanoatova Nazokat Sotvoldi qizi – Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil ta'lim olish mexanizmini takomillashtirishga qo‘yiladigan pedagogik talablar, mezonlar, dasturiy ta’minoti va bosqichlarini bugungi kun nuqtai nazaridan takomillashtirish, axborot texnologiyalari asosida mustaqil ta’lim olishga doir ijtimoiy, psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlarni ilmiy nazariy jihatdan o‘rganilib, tahlil etish orqali unga qo‘yiladigan pedagogik talablar, mezonlar, dasturiy ta’minoti, shakllari va yaratish bosqichlari bir butun yaxlit tizim sifatida bayon etilgan hamda axborot texnologiyalariga qo‘yiladigan pedagogik talablar, mezonlar bugungi ta’lim-tarbiya tizimida kechayotgan islohotlar zamonaviy axborot texnologiyalari nuqtai-nazaridan fikr-mulohazalar yoritilgan.

Аннотация

В данной статье представлены педагогические требования, критерии, программное обеспечение и этапы совершенствования механизма самостоятельного обучения студентов с помощью информационных технологий с позиций сегодняшнего дня. Социальная, психолого-педагогическая, методическая литература по самостоятельному обучению на основе информационных технологий изучены научно и теоретически. Педагогические требования, критерии, программные формы и этапы создания описываются как целостная система посредством анализа. Также освещенны педагогические требования к информационным технологиям, критерии, реформы в современной системе образования и взгляды с точки зрения современных информационных технологий.

Abstract

In this article, the pedagogical requirements, criteria, software and stages for improving the mechanism of independent learning of students with the help of information technologies from today's point of view. Social, psychological, pedagogical, methodical literature on independent education based on information technologies are presented. Pedagogical requirements, criteria, software, forms and stages of creation are described as a whole integrated system through scientific theoretical research and analysis, as well as pedagogical requirements and criteria for information technology Reforms in the education system are discussed from the point of view of modern information technologies.

Kalit so‘zlar: *pedagogik talab, mustaqil ta’lim, ta’lim tizimi, mexanizm, axborot texnologiyalari, pedagogik va psixologik adabiyotlar, ta’lim-tarbiya, dasturiy ta’minot, mezon.*

Ключевые слова: *педагогический спрос, самостоятельное образование, образовательная система, механизм, информационные технологии, педагогические и психологические литературы, образование, программное обеспечение, критерий.*

Key words: *pedagogical demand, independent education, educational system, mechanism, information technologies, pedagogical and psychological literature, education, software, criteria.*

KIRISH

Axborot ta’lim muhitida pedagogika oliy ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish, talabalarga mustaqil ta’lim olish jarayonida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik nazariy ma’lumotlar, qonun-qoidalar, tushunchalar berilishi bilan birgalikda, dastavval talabalarning yoshi va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fanlararo bog‘lanishda takrorlashning oldini oladigan izchil ketma-ketlikka asoslangan uyg‘unlikning bo‘lishi va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta’limga tezkor kirib kelishini inobatga olgan holda, talabalarning mustaqil ta’lim olish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha elektron o‘quv adabiyotlar yaratish va ulardan mustaqil ta’limda keng foydalanish muammolari bo‘yicha olimlardan A.A.Abduqodirov,

M.A.Aripov, R.X.Ayupov, R.X.Djurayev, S.I.Ismoilov, N.I.Taylaqov, K.A.Tursunmetov, U.Sh.Begimqulov, M.H.Lutfillayev, Q.T.Olimov, Sh.M.Komilov, Sh.T.Ermatov, N.R.Rustamovlar tadqiqot ishlari olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.A.Andreyev, V.V.Aleynikov, Ye.A.Alenicheva, O.I.Basina, O.V.Bondarenko, A.N.Nebaba, K.Ye.Demixov, N.N.Yelistratova, Ye.S.Polat, Ye.A.Petrova, A.N.Chuksina, A.Yu.Yakunin, Ye.L.Fedotovalarning tadqiqot ishlarida mustaqil ta’lim tizimini axborotlashtirish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish hamda ulardan talabalarning mustaqil ta’lim jarayonida foydalanish masalalari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar W.L.Rosch, B.Phillipp, B.Andresen, K.Brink, J.Watson, A.Hilllarning tadqiqotlarida axborot texnologiyalari asosida talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonlarida elektron qo‘llanmalar yaratish, ulardan ta’lim tizimida foydalanish va rivojlanish istiqbollari masalalari o‘rganilgan.

Biroq nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim mutaxassislarini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari davr talabiga aylanmoqda. Bu esa pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun mustaqil ta’lim olish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ulardan ta’lim jarayonida foydalanish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

OLINGAN NATIJALAR

Axborot texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil ta’lim olish mexanizmini takomillashtirish vazifalari:

– mustaqil ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarining tuzilishi va mazmuniga qo‘yiladigan pedagogik-psixologik talablarni aniqlashtirish;

– pedagogika oliy ta’lim muassasalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta’lim olish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– axborot texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil ta’lim olish bosqichlarini takomillashtirish;

– talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim olish jarayonida axborot texnologiyalariga qo‘yiladigan talablar:

– axborot texnologiyalarining tuzilishi va mazmuniga qo‘yiladigan ergonomik tavsifga ega turlicha murakkablik darajasiga ega o‘quv materiallarining mujassamlashuvi, ko‘rgazmalilikning yuqori darajasiga egalik, variativ topshiriqlar majmuasini o‘zida aks ettirish kabi pedagogik-psixologik talablar o‘qitishning interaktivlik va optimallik jihatlarini didaktogen produktivlikka ega bo‘lishini bevosita hisobga olish;

– boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim olish jarayonini axborot texnologiyalari vositasida tashkil etishning modullilik, to‘liqlilik, ko‘rgazmalilik, tarmoqlanish, boshqaruvchanlik, moslashuvchanlik kabi tamoyillari o‘qitish jarayonida subyekt-obyekt ko‘rinishiga ega informatsion o‘zaro ta’sir ko‘rsatish jarayonlarini kompyuter vositasida qo‘llab-quvvatlashni taqozo etuvchi kursni texnologik ssenariysini tuzish algoritmi bilan identivligini qat’iy belgilash;

– axborot texnologiyalari vositasida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim olish manbalarni to‘plash, sifatni maqbullashtirish, tarkibiy tuzilmani belgilash, gipermatnni loyihalash, intellektual yadroni hosil qilish, o‘rgatuvchi tizimni tarkib toptirish, vizuallashtirish bosqichlarini konstruksiyalash jarayonlarida multimediali komponentni uzluksiz korreksiyalash mexanizmini ishlab chiqish;


– axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta’lim olish samaradorligini baholashning sifat mezonlari ta’lim standartlariga muvofiqlik, o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatiga egalik, o‘quv faoliyatini tashkil etish va ta’limiy natijalarni tashxis etish shakllari bilan uyg‘unlik ko‘rsatkichlarini takroriy qayta aloqaga kirishuv darajasi adekvatligini maksimal hisobga olish.

Axborot texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil ta’lim olishining amaliy natijalari quyidagilardan iborat: axborot texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil ta’lim olishining tuzilishi, mazmuni, pedagogik talablar, baholash mezonlari talabalarda shakllantirilishi zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar doirasida takomillashtirish pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun axborot texnologiyalari asosida mustaqil ta’limni tashkil etishning elektron manbalarini yaratish; pedagogika oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta’limni tashkil etishning tarkibiy tuzilmasi modullarini motivatsion algoritm vositasida takomillashtirish; axborot texnologiyalari

vositasida talabalarning mustaqil ta’lim olishida keltirilgan ma’lumotlar va yangiliklarning izchilligi, uzviyligi va vorisiyligi asosida foydalanish samaradorligi aniqlash.

MUHOKAMA


Axborot texnologiyalari vositasida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishning ilmiy ahamiyati pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga qo‘yiladigan talablar nazariy-pedagogik jihatdan asoslanganligi, elektron darsliklar mustaqil ta’limni baholash mezonlari asosida ishlab chiqilganligi, oliy ta’lim muassasalari uchun mustaqil ta’lim jarayonida foydalanishning metodik asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.



1-rasm. Mustaqil ta’limni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga qo‘yiladigan umumiy talablar

Mustaqil ta’limni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga qo‘yiladigan umumiy pedagogik talablar mavjud.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil ta’lim olish jarayonida axborot texnologiyalarining amaliy ahamiyati talabalarning elektron manbalarni to‘plash, sifatni maqbullashtirish, tarkibiy tuzilmani belgilash, gipermatnni loyihalash, intellektual yadroni hosil qilish, o‘rgatuvchi tizimni tarkib toptirish, vizuallashtirish bosqichlarining loyihalashtirilganligi, multimediali komponentni uzluksiz korreksiyalash mexanizmi, elektron manbalardan foydalanish samaradorligini baholashning sifat mezonlarini ishlab chiqilganligi bilan belgilash maqsadga muvofiq.



2-rasm. Axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik talablari

Mustaqil ta'limni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga qo'yiladigan quyidagi asosiy pedagogik talablar 2-rasmda keltirilgan. Bu rasmda ikki tomonlama muloqotni ta'minlash, orqaga qaytish imkoniyati, talabalarga mustaqil ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashi, relaksatsiya blokining mavjudligi kabi axborot texnologiyalariga qo'yiladigan pedagogik talablar taklif etilgan.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lim olishlari tegishli fan mazmuni, ta'lim maqsadlariga hamda davlat ta'lim standartlariga mos kelishi, talabalarning mustaqil bilim olishini ta'minlashi, fanga oid yetarli miqdordagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirilgan bo'lishi, talabaga o'z-o'zini yoki o'qituvchiga talabalar bilimini baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratishi lozim. Elektron o'quv adabiyotlar o'z mazmuni, unda ta'limni individuallashtirish tamoyillariga ko'ra mustaqil holda ta'lim olishning hamma xususiyatlarini o'zida aks ettirishi zarur.

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lim olishlarida axborot texnologiyalarining quyidagi xususiyatlarini keltirish mumkin:

- o'qituvchining talabaga eng yaqin uslubiy yordam ko'rsatuvchi vosita;
- fanning har bir bobiga, mavzusiga tegishli nazariy va amaliy ma'lumotlarni axborot texnologiyalari vositalar orqali o'zlashtirish imkoniyatlarining mavjudligi;
- turli ma'lumotlardan elektron foydalanish imkoniyati;
- fanga oid amaliy dasturlar mavjudligi;
- fanga oid test savollari, topshiriqlar, dam olish o'yinlarining mavjudligi;
- ma'lumotlarning ixchamligi;
- qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot berish imkoniyatining mavjudligi;
- talabalarning o'zlashtirish samaradorligini yuqori bo'lishi.

XULOSA

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish mezonlari va bosqichlarini aniqlashtirish, axborot texnologiyalari tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi zarur. Shu bois mustaqil ta'lim jarayonida elektron ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish kabi mezonlar asosida mustaqil ta'lim dasturlarining tuzilishi va mazmuni, baholash mezonlari va bosqichlariga

qo‘yiladigan pedagogik talablarning takomillashtirilishi axborot ta’lim muhitida talabalarning doimiy izlanishlarini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI" Farmoni
2. Mirziyovev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Toshkent-2021; 52-53 betlar.
3. Jumaboyev S.M. Ta’limni kompyuterlashtirish va uning tarkibi // Iqtidorli talabalarning“yoshlar va zamonoviy texnologiyalar” mintaqaviy ilmiy amaliy konfirensiyasi tezislar to‘plami. Jizzax-2008 y. 28-29 mart. -315 b.
4. Sadikova Feruza Maxmudjanovna AXBOROT TA’LIM MUHITIDA TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2020. №7 (92). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ahborot-talim-mu-itida-talabalar-musta-il-ishini-tashkil-etish (data obrasheniya: 22.04.2023).
5. Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI. Oliy ta’lim muassasalari uchun / O‘zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2010,120 b.
6. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS' ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.
7. Mirzakarimova M. The Necessity to Develop Students’ Entrepreneurial Skills in English Classes - Telematique, 2022. 7128-7131 p.
8. Madaminjonovna, M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
9. Alqorov Q., Doniyorova Shб, Burxonov R. TALABALAR MUSTAQIL TA’LIM OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI // Vestnik Nauki i Tvorchestva. 2020. №12 (60). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/talabalar-musta-il-talim-olish-faoliyatini-tashkil-etish-va-bosh-arish-tehnologiyasi (data obrasheniya: 22.04.2023).
10. Zaripov, L. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish: metodik qo‘llanma / – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.